
ZAMONDOSH

Farg'ona shahridagi 40-IDUMda fidoyi ustozlar ko'pchilikni tashkil qiladi. Ulardan biri 1-toifali biologiya fani o'qituvchisi Iroda Abdullaevadir.

Iqidorli muallima ish faoliyatini Samarqand viloyatida o'qituvchilikdan boshlagan. 2008 yildan buyon esa mazkur muassasada ishlamoqda.

O'z faoliyati davomida u turli ko'rik-tanlovlar, seminar va xalqaro anjumanlarda muvaffaqiyatli ishtirok etdi. O'tgan yillar davomidagi uning tinimsiz mehnatlari o'z samarasini bera boshladi.

2018-2019-o'quv yilida «Eng yaxshi metodik qo'llanma» Respublika ko'rik-tanlovida sovrinli o'rinlarni egalladi. 2020 yilda YuNISEF tashkiloti tomonidan o'tkazilgan onlayn konferentsiyada ilmiy metodik maqolalari bilan ishtirokida va 2021 yilda STEM, STEAM, STREAM dasturlari doirasida o'tkazilgan test natijalariga ko'ra xalqaro sertifikatni qo'lga kiritdi.

2022 yilda «Fan to'garaklari» ko'rik-tanlovi Respublika bosqichida 2-o'rinni egalladi.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2023-03-17 09:58:20